

**“Work and travel” xalqaro dasturlari
doirasida talaba yoshlar ssuda ajratish
bo'yicha**

USLUBIY QO'LLANMA

TOSHKENT-2025

“Work and travel” xalqaro dasturlari doirasida talaba yoshlar ssuda ajratish bo’yicha uslubiy qo’llanma.: O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil. 19 bet.

Mazkur uslubiy qo’llanma O’zbekiston Respublikasida yer qa’ri bo’yicha geologik materiallarning loyiha-smeta hujjatlarining davlat ekspertizasi xulosasini berish tartibini belgilab beradi.

Mazkur uslubiy qo’llanma Tog’-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimidagi tashkilotlar, geologiya-qidiruv ekspeditsiyalari, yer qa’ridan foydalanuvchi korxonalar, ilmiy-tadqiqot institutlari hamda soha mutaxassislari uchun mo’ljallangan bo’lib, yer qa’rini geologik jihatdan o’rganish va kadastr ma’lumotlarini ishonchli, to’liq va samarali yuritishda amaliy qo’llanma sifatida xizmat qiladi.

MUNDARIJA:

FOYDALANILGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR	4
UMUMIY QOIDALAR	5
SSUDA AJRATISH HAQIDAGI ARIZANI KO'RIB CHIQISH TARTIBI...	5
SSUDA AJRATISH BO'YICHA DAVLAT XIZMATINI KO'RSATISH ISHTIROKCHILRI	5
SSUDA AJRATISH VA UNI QAYTARISH TARTIBI	5
ILOVALAR	5

FOYDALANILGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 2-maydagi " "Work and travel" xalqaro dasturlarida ishtirok etuvchi talaba yoshlarning ishlash va sayohat qilish maqsadida xorijiy davlatlarga borishi va kelishi bilan bog'liq xarajatlar uchun ssuda ajratish tartibini joriy etish to'g'risida"gi 290-son qarori



UMUMIY QOIDALAR

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan "Work and travel" xalqaro dasturlarida (keyingi o'rinlarda — "Work and travel" dasturi) ishtirok etuvchi talaba yoshlarning ishlash va sayohat qilish maqsadida xorijiy davlatlarga borishi va kelishi bilan bog'liq xarajatlar uchun foizsiz ssuda (keyingi o'rinlarda — ssuda) ajratish taribi nazarda tutilgan.

Yoshlar ishlari agentligining Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan **har yili 2 000 nafargacha** talaba yoshlarga bazaviy hisoblash miqdorining **40 baravari miqdorida** ssuda ajratiladi;

Mazkur uslubiy qo'llanmada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:



ariza beruvchi (ssuda oluvchi) — 16 yoshga to'lgan va 30 yoshdan oshmagan, O'zbekiston Respublikasidagi oliy ta'lim tashkilotining kunduzgi, kechki (smenali) yoki sirtqi (maxsus sirtqi) ta'lim shakli bo'yicha tahsil olayotgan (bitiruvchi kurs talabalari bundan mustasno) O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan, "Work and travel" dasturi doirasida ishlash va sayohat qilish uchun xorijiy davlatga borish va kelish bilan bog'liq xarajat uchun ssuda ajratishni so'rab belgilangan tartibda murojaat qilgan jismoniy shaxs;



vakolatli organ — O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi;



viza — ariza beruvchi “Work and travel” dasturi doirasida ishlash va sayohat qilish istagida bo‘lgan xorijiy davlatning diplomatik vakolatxonasi yoki konsullik muassasasidan olingan, ma’lum muddat davomida o’sha davlatda ishlash va sayohat qilish uchun berilgan hujjat;



ssuda — “Work and travel” dasturi doirasida xorijiy davlatga borishva kelish uchun aviachipta xarid qilish va boshqa xarajatlarni qoplash maqsadida bazaviy hisoblash miqdorining 40 baravari miqdorida ariza beruvchi tomonidan qaytarish sharti bilan ajratiladigan qarz



qarz shartnomasi — ssuda oluvchi va ssuda beruvchining huquq va majburiyatlari, ssuda miqdori, ssuda muddati, uni qaytarish shartlari, kafillik shartlari (agar kafil ishtirok etsa), nizolarni hal qilish tartibi va boshqa shartlarni belgilovchi huquqiy hujjat.



Ssuda **har yili** arizalar topshirish ketma-ketligi bo‘yicha **2 000 nafargacha talaba** yoshlarga ajratiladi.

Bir kalendar yil davomida **2 000 nafar ariza** beruvchiga ssuda ajratish **ma'qullangandan** so'ng ssuda ajratish uchun ariza qabul qilish to'xtatiladi.

Ssuda ajratilgunga qadar, biroq ketma-ketligi bo'yicha ssuda ajratilgan ariza beruvchilardan keyin ariza topshirgan shaxslar keyingi yil uchun ro'yxatga qo'yilmaydi hamda ssuda olish uchun **kelgusi yilda qaytadan murojaat qiladi.**



Ssuda ajratish ma'qullangan murojaatlar hamda ajratilgan ssudalar soni haqidagi ma'lumotlar vakolatli organning **rasmiy veb-saytida** doimiy ravishda e'lon qilib boriladi.

◀◀ Davlat xizmatlari markazlari va vakolatli organ o'rtasidagi elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish doirasida axborot almashinuvi Elektron hukumatning **idoralararo ma'lumotlar uzatish tarmog'i orqali** amalga oshiriladi.

◀◀ Ssuda ajratish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun vakolatli organ tomonidan fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda malakali mutaxassislar jalb qilinishi mumkin.

Bunda ushbu mutaxassislar tomonidan arizalarning o'z vaqtida ko'rib chiqilishi va asossiz rad etilmasligi vakolatli organ tomonidan doimiy nazorat qilib boriladi.

SSUDA AJRATISH HAQIDAGI ARIZANI KO'RIB CHIQISH TARTIBI

Ariza beruvchi ssuda olish uchun istalgan davlat xizmatlari markaziga murojaat qiladi yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida (keyingi o'rinlarda — YIDXP) davlat xizmatidan elektron shaklda foydalanish uchun ro'yxatdan o'tadi va ommaviy oferta shartlarini qabul qiladi.



Ariza beruvchiso'rovnomani elektron shaklda to'ldiradi.
Bunda:

a) ariza beruvchining murojaatiga oid quyidagi ma'lumotlar avtomatik tarzda aniqlanadi:

📌 shaxsiga doir ma'lumotlar — O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Migratsiya va personallashtirish departamentining elektron axborot tizimi orqali;

📌 doimiy yashash manzili — O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining manzil-ma'lumot elektron axborot tizimi orqali;

📌 ariza beruvchining oliy ta'lim tashkiloti talabasi ekanligi — Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining **“Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish (HEMIS)” axborot tizimi** orqali. Agar oliy ta'lim tashkilotining ma'lumotlari ushbu axborot tizimida

mavjud bo'lmasa, ariza beruvchi oliy ta'lim tashkilotida kunduzgi, kechki (smenali) va sirtqi (maxsus sirtqi) ta'lim shakli bo'yicha ta'lim olayotgani to'g'risida ssuda ajratish haqidagi murojaat qilingan kundan 10 kalendar kundan oshmagan sanada berilgan ma'lumotnomani elektron shaklda (pdf formatda) ilova qiladi;

 agar ariza beruvchiga kafil bo'luvchi jismoniy shaxs kafil bo'layotgan bo'lsa, taqdim etilgan uning ma'lumotlari so'nggi 12 oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar — "Raqamli hukumat" tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali;

b) ariza beruvchi quyidagi hujjatlarni ilova qiladi:

▶ "Work and travel" dasturi mavjud bo'lgan xorijiy davlatdagi ish beruvchi bilan ariza beruvchi o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomasi (pdf formatda);

▶ ariza beruvchi tomonidan ssuda qaytarilmagan hollarda, ushbu mablag'larni qaytarish majburiyatini o'z zimmasiga oluvchi kafil jismoniy shaxsning YIDXP orqali olingan so'nggi 12 oylik ish haqi to'g'risida ma'lumot va qarz shartnomasi bo'yicha kafil bo'lishga rozilik arizasi (pdf formatda) — agar mavjud bo'lsa;

▶ viza (pdf formatda).



Agar **kafil bo'luvchi shaxsning** ma'lumotlari taqdim etilmagan bo'lsa, ariza beruvchi ssudani qaytarmaslik xavfini sug'urta qilish bo'yicha sug'urta tashkiloti tomonidan beriladigan sug'urta polisini taqdim etishi haqida YIDXP orqali ma'lumot kiritadi.



Ariza beruvchidan ushbu bandeda ko'rsatilmagan ma'lumot va hujjatlarni talab qilish taqiqlanadi.

Taqdim etilgan hujjatlardagi ma'lumotlarning xaqqoniyligiga ariza beruvchi javobgar hisoblanadi.

Ariza beruvchi davlat xizmatidan foydalanishdan uni ko'rsatishning har qanday bosqichida bosh tortish huquqiga ega. Ariza beruvchi davlat xizmatidan foydalanishdan bosh tortganda, uning **murojaati ko'rilmadan qoldiriladi**.



Davlat xizmati bepul ko'rsatiladi.

SSUDA AJRATISH BO'YICHA DAVLAT XIZMATINI KO'RSATISH ISHTIROKCHILRI

Ssuda ajratish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishda quyidagilar ishtirok etadi:

« davlat xizmatlari markazi ariza beruvchi kelib murojaat etganda, uning nomidan murojaatni vakolatli organga yuboradi;

« vakolatli organ taqdim etilgan hujjatlarning kelib tushish ketma-ketligi bo'yicha uch ish kuni ichida ariza beruvchining ma'lumotlari va taqdim etgan hujjatlari muvofiqligini o'rganadi va natijasi bo'yicha YIDXPga ma'lumot kiritadi. **Bunda:**

taqdim etilgan hujjatlar belgilangan talablarga mos kelmagan taqdirda, ssuda ajratish rad etiladi va vakolatli organ tomonidan tegishli kamchiliklar ko'rsatilgan holda ariza beruvchining YIDXPdagi shaxsiy kabinetiga ma'lumot kiritiladi hamda ariza beruvchiga bu haqida SMS-xabarnoma yuboriladi;

taqdim etilgan hujjatlar belgilangan talablarga mos kelgan taqdirda, tegishli hududdagi Yoshlar ishlari boshqarmasi vakili, ariza beruvchi va kafil (agar sug'urta polisi taqdim etilmagan bo'lsa) tomonidan imzolangan, notarial tartibda tasdiqlangan qarz shartnomasi va kafillik shartnomasini besh ish kuni ichida YIDXP orqali vakolatli organga elektron shaklda (pdf formatda) yuborish haqida ariza beruvchining YIDXPdagi shaxsiy kabinetiga ma'lumot kiritiladi va ariza beruvchiga bu haqida SMS-xabarnoma yuboriladi. Mazkur qarz shartnomasini tuzish bilan bog'liq barcha

xarajatlar (davlat boji va qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa to'lovlar) ariza beruvchi tomonidan to'lanadi;

◆ tegishli hududdagi Yoshlar ishlari boshqarmasi vakili ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan, uning xorijga chiqish biometrik pasportining asl nusxasidagi viza ma'lumotlarini ariza beruvchi ssuda ajratish haqida ariza yuborishda ilova qilgan viza ma'lumotlari bilan solishtirish orqali o'rganadi hamda ariza beruvchining viza ma'lumotlari haqqoniy bo'lgan taqdirda, shuningdek, agar ariza beruvchi kafil bo'luvchi shaxsning ma'lumotlarini taqdim etmagan holatda ssudani qaytarmaslik xavfini sug'urta qilish bo'yicha sug'urta tashkiloti tomonidan beriladigan sug'urta polisini taqdim etgan taqdirda, qarz shartnomasini imzolaydi;

agar ariza beruvchining viza ma'lumotlari haqqoniy bo'lmagan taqdirda yoki agar ariza beruvchi kafil bo'luvchi shaxsning ma'lumotlarini taqdim etmagan holatda ssudani qaytarmaslik xavfini sug'urta qilish bo'yicha sug'urta tashkiloti tomonidan beriladigan sug'urta polisini taqdim etmagan taqdirda, Yoshlar ishlari boshqarmasi vakili bu haqida dalolatnoma rasmiylashtirib, bir ish kunida vakolatli organning mas'ul xodimini xabardor qiladi;

◆ ariza beruvchi tasdiqlangan qarz shartnomasini YIDXP orqali elektron shaklda (pdf formatda) yuborgandan so'ng vakolatli organ tomonidan ssuda ajratilishi haqida elektron shakldagi QR-kodli ma'lumotnoma ariza beruvchining YIDXPdagi shaxsiy kabinetiga kiritiladi va ariza beruvchiga bu haqida SMS-xabarnoma yuboriladi;

ariza beruvchining viza ma'lumotlari haqqoniy bo'lmagan taqdirda, shuningdek, ariza beruvchi tasdiqlangan qarz

shartnomasini ushbu bandning "b" kichik bandida belgilangan muddatda yubormasa, ssuda ajratish rad etiladi hamda vakolatli organ tomonidan tegishli kamchiliklar ko'rsatilgan holda ariza beruvchining YIDXPdagi shaxsiy kabinetiga ma'lumot kiritiladi va bu haqida ariza beruvchiga SMS-xabarnoma yuboriladi.

SSUDA AJRATISH VA UNI QAYTARISH TARTIBI



Ariza beruvchiga QR-kodli ma'lumotnoma yuborilgandan so'ng vakolatli organ uch ish kuni ichida ssudani tegishli hududdagi Yoshlar ishlari boshqarmasi hisobvarag'iga, Yoshlar ishlari boshqarmasi esa uch ish kuni ichida qarz shartnomasida rekvizitlari ko'rsatilgan ariza beruvchining bank kartasiga o'tkazadi.



Ariza beruvchi xorijiy davlatning diplomatik vakolatxonasi yoki konsullik muassasasi tomonidan ariza beruvchiga berilgan vizada qayd etilgan xorijiy davlatda bo'lishning so'nggi sanasidan boshlab bir oy ichida, agar ariza beruvchi ajratilgan ssuda hisobidan xorijiy davlatga bormagan bo'lsa, unga vakolatli organ tomonidan ssudani qaytarish haqida talabnoma yuborilgan sanadan boshlab o'n besh kun ichida ajratilgan ssudani qarz shartnomasida ko'rsatilgan vakolatli organning tegishli shaxsiy g'azna hisobvarag'iga to'liq qaytarishi shart.



Ushbu mablag'lar yuqorida belgilangan muddatda qaytarilmagan hollarda tegishli hududdagi Yoshlar ishlari boshqarmasi ariza beruvchiga va agar qarz shartnomasi kafil tomonidan imzolangan bo'lsa, unga ssudani o'n besh kalendar kundan ko'p bo'lmagan muddatda qaytarish haqida notarius orqali yozma bildirishnoma yuboradi.



Ariza beruvchi yoki kafil jismoniy shaxs tomonidan yozma bildirishnoma talablari bajarilmaganda, tegishli hududdagi Yoshlar ishlari boshqarmasi ikki ish kuni ichida muddati o'tgan qarzдорlik bo'yicha ijro xati yozib berishni so'rab notariusga

murojaat qiladi hamda ijro xatini yozib berganlik uchun Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan davlat bojini to'laydi.



Notarius tomonidan bir ish kuni ichida yozib berilgan ijro xati ijro harakatlarini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining (keyingi o'rinlarda — Majburiy ijro byurosi) hududiy bo'linmasiga taqdim etiladi.



Majburiy ijro byurosining hududiy bo'linmasi belgilangan tartibda muddati o'tgan qarzdorlikni undirish choralarini ko'radi.



Majburiy ijro byurosi tomonidan undiruvni amalga oshirish imkoni bo'lmaganda, agar ariza beruvchi tomonidan sug'urta polisi taqdim etilgan bo'lsa, qarzdorlik ushbu sug'urta polisiga asosan sug'urta tashkiloti tomonidan to'lab beriladi.

ILOVALAR

“Work and travel” xalqaro dasturlarida ishtirok etuvchi talaba yoshlarning ishlash va sayohat qilish maqsadida xorijiy davlatlarga borishi va kelishi bilan bogʻliq xarajatlar uchun ssuda ajratish SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddati
1-bosqich	Ariza beruvchi	Ssuda ajratish boʻyicha tuman (shahar) davlat xizmatlari markazi yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi oʻrinlarda — YIDXP) orqali murojaat qiladi.	Vizada koʻrsatilgan xorijiy davlatda boʻlish sanasi boshlanishiga kamida 20 kalendar kun qolganda
2-bosqich	1. Davlat xizmatlari markazi 2. YIDXP	Murojaatni va unga ilova qilingan hujjatlarni Yoshlar ishlari agentligiga yuboradi.	1. 10 daqiqa ichida 2. Avtomatik tarzda
3-bosqich	Yoshlar ishlari agentligi	1. Taqdim etilgan hujjatlarning belgilangan talablarga muvofiqligini oʻrganadi hamda muvofiqligi aniqlanganda, ariza beruvchiga tegishli hududdagi Yoshlar ishlari boshqarmasi vakili, ariza beruvchi va kafil tomonidan imzolangan, notarial tartibda tasdiqlangan qarz shartnomasini 5 ish kuni ichida YIDXP orqali elektron shaklda (pdf formatda) yuborish haqida ariza beruvchining YIDXPdagi shaxsiy kabinetiga maʼlumot kiritadi hamda ariza beruvchiga bu haqida SMS-xabarnoma yuboradi. 2. Taqdim etilgan hujjatlar belgilangan talablarga muvofiq boʻlmaganda, ssuda ajratishni rad etadi, ariza beruvchining YIDXPdagi shaxsiy kabinetiga maʼlumot kiritadi va ariza beruvchiga bu haqida SMS-xabarnoma yuboradi.	3 ish kuni ichida

4-bosqich	Tegishli hududdagi Yoshlar ishlari boshqarmasi	1. Yoshlar ishlari boshqarmasi vakili ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan uning xorijga chiqish biometrik pasportining asl nusxasidagi viza ma'lumotlarini ariza beruvchi ssuda ajratish haqida ariza yuborishda ilova qilgan viza ma'lumotlari bilan solishtirish orqali o'rganadi. Ushbu ma'lumotlar to'g'ri bo'lgan taqdirda, shuningdek, agar ariza beruvchi kafil bo'luvchi shaxsning ma'lumotlarini taqdim etmagan holatda ssudani qaytarmaslik xavfini sug'urta qilish bo'yicha sug'urta tashkiloti tomonidan beriladigan sug'urta polisini taqdim etgan taqdirda, qarz shartnomasini imzolaydi. 2. Ariza beruvchining viza ma'lumotlari haqqoniy bo'lmagan taqdirda yoki agar ariza beruvchi kafil bo'luvchi shaxsning ma'lumotlarini taqdim etmagan holatda ssudani qaytarmaslik xavfini sug'urta qilish bo'yicha sug'urta tashkiloti tomonidan beriladigan sug'urta polisini taqdim etmaganda, Yoshlar ishlari boshqarmasi vakili bu haqida dalolatnoma rasmiylashtirib, 1 ish kuni ichida Yoshlar ishlari agentligi mas'ul xodimini xabardor qiladi.	5 ish kuni ichida
5-bosqich	Ariza beruvchi	Tasdiqlangan qarz shartnomasini YIDXP orqali elektron shaklda (pdf formatda) Yoshlar ishlari agentligiga yuboradi.	5 ish kuni ichida
6-bosqich	Yoshlar ishlari agentligi	1. Ariza beruvchining viza ma'lumotlari haqqoniy bo'lmaganda, agar ariza beruvchi kafil bo'luvchi shaxsning ma'lumotlarini taqdim etmagan holatda ssudani qaytarmaslik xavfini sug'urta qilish bo'yicha sug'urta tashkiloti tomonidan beriladigan sug'urta polisini taqdim etmaganda, shuningdek, ariza beruvchi tasdiqlangan qarz shartnomasini 5 ish kuni ichida YIDXP orqali elektron shaklda (pdf formatda) yubormaganda ssuda ajratishni rad etadi, bu haqida ariza beruvchining YIDXPdagi shaxsiy kabinetiga ma'lumot yuboradi va ariza beruvchiga SMS-xabarnoma yuboradi. 2. Ariza beruvchi tasdiqlangan qarz shartnomasini 5 ish kun ichida YIDXP orqali elektron shaklda (pdf formatda) yuborganda, uning YIDXPdagi shaxsiy kabinetiga ssuda ajratilishi haqida elektron shakldagi QR-kodli ma'lumotnoma yuboradi va ariza beruvchiga bu haqida SMS-xabarnoma yuboradi.	1 ish kuni ichida

“Work and travel” xalqaro dasturlarida ishtirok etuvchi talaba yoshlarning ishlash va sayohat qilish maqsadida xorijiy davlatlarga borishi va kelishi bilan bog‘liq xarajatlarni uchun ssuda ajratish bo‘yicha SO‘ROVNOMA namunasi

Ariza t/r	Qabul qilish sanasi	Qabul qilgan shaxs
—	—	—
I. Ariza beruvchi (ssuda oluvchi) jismoniy shaxs haqida ma’lumot:		
1.1. F.I.O.:	(avtomatik aniqlanadi)	
1.2. Tug‘ilgan sanasi:	(avtomatik aniqlanadi)	
1.3. Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR):	(ma’lumot kiritiladi)	
1.4. Telefon raqami:	(ma’lumot kiritiladi)	
1.5. Yashash joyi:	(avtomatik aniqlanadi)	
1.6. Oliy ta’lim tashkiloti talabasi ekanligi to‘g‘risida ma’lumot	(avtomatik aniqlanadi)	
1.7. “Work and travel” dasturi mavjud bo‘lgan xorijiy davlatdagi ish beruvchi bilan ariza beruvchi o‘rtasida tuzilgan mehnat shartnomasi	(pdf formatda kiritiladi)	
1.8. Ssudani qaytarmaslik xavfini sug‘urta qilish bo‘yicha sug‘urta tashkiloti tomonidan berilgan sug‘urta polisi (<i>ariza beruvchiga kafil bo‘luvchi jismoniy shaxs haqidagi ma’lumot kiritilmaganda, ushbu hujjat kiritiladi</i>)	(pdf formatda kiritiladi)	
1.9. “Work and travel” dasturi doirasida ariza beruvchi ishlash va sayohat qilish istagida bo‘lgan xorijiy davlatning diplomatik vakolatxonasi yoki konsullik muassasasidan olingan, ma’lum muddat davomida o‘sha davlatda ishlash va sayohat qilish uchun berilgan viza	(pdf formatda kiritiladi)	
II. Ariza beruvchiga kafil bo‘luvchi jismoniy shaxs haqida ma’lumot:		
<i>(ssudani qaytarmaslik xavfini sug‘urta qilish bo‘yicha sug‘urta polisi taqdim etilsa, to‘ldirilmaydi)</i>		
2.1. F.I.O.:	(avtomatik aniqlanadi)	
2.2. Tug‘ilgan sanasi:	(avtomatik aniqlanadi)	
2.3. Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR):	(ma’lumot kiritiladi)	
2.4. Telefon raqami:	(ma’lumot kiritiladi)	
2.5. Yashash joyi:	(avtomatik aniqlanadi)	
2.6. So‘nggi 12 oylik ish haqi to‘g‘risida ma’lumot	(avtomatik aniqlanadi)	
2.7. Qarz shartnomasi bo‘yicha kafil bo‘lishga rozilik arizasi	(pdf formatda kiritiladi)	
III. Taqdim etilgan I va II bo‘limlardagi hujjatlar mazkur Reglament talablariga muvofiq bo‘lganda taqdim etiladi:		
3.1. Tegishli hududdagi Yoshlar ishlari boshqarmasi vakili, ariza beruvchi va kafil (<i>agar sug‘urta polisi taqdim etilmagan bo‘lsa</i>) tomonidan imzolangan, notarial tartibda tasdiqlangan qarz shartnomasi	(pdf formatda kiritiladi)	

QAYDLAR UCHUN

[illegible]